

Xirosima. Gazeta-jurnallarda bu shaharning nomi bilan bog'liq biror satrga ko'zim tushsa yoki radio-televidenie axboroti qulog'imga chalinsa, beixtiyor yuragim uvishadi. Garchi o'qib-eshitganlarimning atomga daxli bo'lmasa-da, maktabda tarix fani o'qituvchimizning Xirosima va Nagasakida sodir etilgan dahshatlar bilan bog'liq mavzudagi saboqlari xotiraga qo'rg'oshindek quyilganidanmi, Kunchiqar yurtning har ikki shahri kaminaga mas'uma va jafokash bo'lib tuyulaveradi. Mana, oradan roppa-rosa oltmis yil o'tdi. Biroq atom qurbaniga aylangan shaharlar timsolida kurrai zamin o'z bolalaridan shafqat o'tinayotgan mushtipar ona misoli mung'ayganicha insoniyatga umid ko'zlarini tikmoqda. Tiriklikka chang solishga hoziru nozir atom xavfi hamon Ona Yerni vayron etmoq uchun payt poyleydi. Dunyoga hokimlik da'vosigidagi gegemon hukumatlar raqib tomonni o'zining atom tugmachalari bilan dahshatga solishdan zavqlanadi. Ana shunday adoqsiz mulohazalar ardoqli shoirning quyma satrlarini yodga soladi:

Zarrani ijod etib,
Dahshat balo bonyod etib,
Oqibatni yod etib,
Hayron o'zing, hayron o'zing...

1945 yil 6 avgust. Ertalab soat 8.15 da Xirosima osmoni uzra (erdan 580 metr balandlikda) Amerika Qo'shma Shtatlarining atom bombasi portladi. Insoniyat hayotida birinchi marotaba sodir etilgan "dahshat balo"si 3000-4000 daraja harorat bilan bir lahzada yero ko'kni kunpayakun qildi. Yam-yashil shahar ko'z ochib yunguncha yaydoq cho'luy biyobonga aylandi, unda hayotdan asar ham qolmadi. Oqibatda 140 ming kishi hayotdan ko'z yumdi, minglab turar-joylar, savdo va sanoat ob'ektlari yer bilan yakson bo'ldi. O'lganlar orasida 20 ming koreys millatiga mansub kishilar, 10 ming AQSh harbiy asirlari va minglab yuqori sinf o'quvchilari, Janubiy Osiyoning boshqa davlatlaridan kelgan talabalar ham bor edi. Bulardan tashqari, mudhish falokat yuzlab, minglab insonlarning qalbiga umrbod bitmas-tuganmas jarohat solib ketdi.

Xirosimadagi Tinchlik muzeyidaniz. Yaponlar tarix xatolaridan saboq chiqarib yashaydigan, o'z suyagini e'zozlab, ajodollariga ehtirom ko'rsatadigan oqibatli xalq. Buni Tinchlik muzeysi va unga tutash Tinchlik xiyoboni, Tinchlik ko'li va boshqa o'nlab yodgorliklarni o'zida jamlagan ulkan majmua - tarixiy qadamjo ham isbotlab turibdi. Atom qurbanlari xotirasiga tashkil etilgan eksponatlarga boy muzey bu yerga tashrif buyurgan eng diydasi qattiq kishini ham ko'zini yoshlamay qo'ymaydi. Atom hayqirig'dan roppa-rosa 8.15 da qotib qolgan qo'l soati, nimalar bo'layotganini tushunib yetmay ko'zlarini qo'rqinch-xavotir bilan yumulgan maktab o'quvchisining kuyik kiyimlari, qutichadagi hali yeb ulgurilmay ko'mirga aylangan tushlik, o'ta yuqori haroratdan erib turli shakllarga do'ngan shisha idishlari, kuchli larzadan darz ketgan ulkan toshlar atomning vayronkorlik kuchi-shiddatini ochiq-oshkor namoyon etadi. Dunyoning taloshlari bilan bir pullik ishi bo'lmay zavq bilan velesipedchasini hayday turib, bir lahzada joni uzilgan norasidaning o'zi bilan qo'shib ko'milgan, keyinchalik qazib olinib muzeyga topshirilgan uch oyoqli velosipedini ko'rib, butun vujudingiz muz qotadi. Zangga belangan jajjigina ulovcha egasini kutib zerikkan toychoqni eslatadi. Kishnab-kishnab sakrayotgan toychoqni...

Muzeyning bir qancha nomlar bilan atalgan bo'limgarida yadro quroli va uning insoniyat boshiga solgan, soladigan beshafqat savdolari birma-bir tushuntirib berilgan. Qay uslubda - audio-tushuntirish bo'ladimi, mutaxassisning hikoya qilib berishi bo'ladimi yoki muzey zallaridagi video-televizion usul yordamida voqealar rivojini kuzatish bo'ladimi - bari tomoshabinlarga mash'um falokat oqibatlarini tahlil etish imkonini beradi, yuraklarga hayajon soladi.

Boyagina qiziqsinib tanishganim - amerikalik uch-to'rt chog'li sayyoqlar bir eksponat qarshisida yum-yum yig'lab turishganini ko'rib, ta'sirlanib ketdim. Ota-bobolar xatosi farzandlar vijdonini qiyayotgandir ehtimol, degan o'y kechdi ko'nglimdan... Tinchlik xiyobonidagi atom qurbanlari xotirasiga o'rnatilgan yodgorlik - Kenotafda "Tinch orom olinglar, o'tmish takrorlanmaydi" degan yozuv bor. Umuman olganda, xiyobon oralab yurilsa, atom qurbanlari xotirasiga ehtirom tariqasida bunyod etilgan ko'plab yodgorliklar, jumladan favvoralar ko'zga tashlanadi. Ana shunday obidalardan biri - Tinchlik bolalar yodgorligi begunoh qizaloqning ayanchli qismati bilan bog'liq.

...Atom bombasi portlaganida Sadako Sasaki ismli qizaloq ikki yoshda edi. Yadro qurolining shafqatsiz oqibati endigina atak-chechak bo'lgan mana shu beg'ubor go'dakni ham o'z domiga oldi. Leykemiya - oq qon kasalligi tashxisi bilan uni kasalxonaga yotqizishdi. Sekin-asta ulg'aygan qizaloq qancha ko'p turna yasasam, shuncha tez tuzalib ketaman, degan umidda har kuni turli qog'oz bo'laklaridan, dori-darmondan bo'shagan qog'oz-qutilardan turna yasadi-yasayverdi. Biroq, yuzlab qog'oz turnalari uning sog'ayib ketishiga yordam berolmadi... Qizaloqning umri bor-yo'g'i yana o'n yil davom etdi, xolos. 1955 yilning 25 oktyabrida Sadakoning umid to'la ko'zlarini mangu yumildi.

Qizaloqning bevaqt o'limi sinfdoshlarini va minglab tengdoshlarini chuqur qayg'uga soldi. Mamlakatning tuli puchmog'laridan bolalar tomondan yig'ilgan xayriya pullari evaziga xotira haykali yuzaga keldi. Boshi uzra ulkan turna qanotlarini tutib turgan qizaloq siyosida bolalarning osuda kelajak xususidagi sof umidlari aks etdi. Bu yerga tashrif buyurgan bolalar o'z qo'llari bilan yasagan minglab qog'oz turnalarni yaqin-atrofdagi buta va daraxt shoxlariga ilib ketishi an'ana tusini olgan. Jajji bolakaylor tengdoshlarini shu tariqa yo'qlashadi, uning ruhini shu tariqa shod etishga oshiqishadi.

Chexiyalik mutaxassis Yan Letsel loyihasi assosida 1915 yilda bonyod etilgan ko'pqavatlari yirik bino bir paytalar Xirosima prefekturasi sanoat tovarlari ko'rgazmasiga, umuman savdo-sanoatning rivojlanishiga xizmat qilgan. Suyagi baquvvat ekanmi, portlash epimarkazidan bor-yo'g'i 160 metr masofa oralidqa bo'lishiga qaramay, binoning tirkamalari omon qolgan. Atom uyi deb ataladigan bu mashhur bino Tinchlik xiyobonining to'rida mudhish fojea shohidi sifatida mung'ayib turibdi.

Darvoqe, o'tgan oltmis yil binoda o'z ishini qilib ulgurdi. Yopinchisiz qolgan xaroba bino yildan yilga yog'in-sochin va boshqa tabiiy hodisalar tufayli yana ham puturdan ketmoqda. Inshoot ichidan qo'shimcha tirkamalari berilgan. Ammo buning o'zining uni saqlab qolish imkonini bermaydi. Aytishlaricha, Atom uyining ustiga maxsus yopinchiq - ayvon qurish xususida ham loyiha tayyorlangan.

O'sha mahalda shaharda 85 dona tramvay yo'lovchilar uzog'ini yaqin qilar edi. Oradan qancha suvlar oqib o'tdi. Kuchli nurlanishdan zaharlangan zamin qayta jonlanib, undan yana gulu rayhonlar una boshladi. Atomdan omon qolgan tramvaylardan to'rttasi hamon po'lat izlarda.

Xirosimada mavjud ko'plab gazeta va jurnallarda, teleradiostudiyalarda bo'lib ishonch hosil qildikki, shahardagi mavjud OAVda atom mavzusi hamon dolzarb ahamiyat kasb etadi. Birgina NHK teleradio korporatsiyasining Xirosima bo'limida yuqoridagi

This is not registered version of TotalDoc Converter.
ma'ba konfuzionlari yangi dastur yaratish haqida ham qo'shib qo'sha bidaqda. Dasturlar "Atom qurbanlari", "Tinchlik va atom muammosi" hamda atomni yashirincha tayyorlash bilan bog'liq ma'lumotlar asosidagi ko'rsatuvlardan iborat.

Ayni mavzu "Xirosima terebi" televideniyasining ham doimiy yo'nalishlaridan sanaladi. Mazkur televidenie bo'lim boshlig'i Uno Tomio Xirosimadagi voqealarni ko'pchilik zamonaviy yapon yoshlari bilmasligidan xavotirda ekanini biz bilan bo'lgan suhbatda yashirmadi. "Xirosima atomdan jabr ko'rghanlar bilan aloqa qiladi. Oqibatlari ko'zga ko'rinnmaydigan bu mash'um qurolni zamindan yo'q qilish butun olam ahlining mushtarak maqsadi bo'lishi kerak" deb hisoblaydi Uno Tomio.

Xirosima meriyasi 1982 yildan buyon har yil 6 avgustda dunyo shaharlari merlarining yig'inini tashkil etib keladi. Ayni paytda bu shaharda istiqomat qilayotgan 85 ming kishi atom qurbanlari maqomiga ega. Ularning o'rtacha yoshi 72 yoshni tashkil etadi.

Atomdan jabr ko'rghanlarga turli tibbiy-moliyaviy ko'mak ko'rsatiladi.

Hozir Xirosimada bir million 140 ming kishi istiqomat qiladi. Shahar aholisi jihatidan mamlakatda o'ninch o'rinni egallaydi.

Mashhur "Mazda" avtomobili ham aynan shu yerda ishlab chiqariladi. Shahar byudjeti bir necha milliard AQSh dollarini tashkil etadi.

Xirosimaning bugungi qiyofasi tamomila boshqacha. Bir lahzada cho'lga aylangan shaharda yil sayin yaponlarga xos mehnatsevarlik, bunyodkorlik va izlanuvchanlik hosilasi o'laroq aql bovar qilmaydigan ulkan inshootlar qad rostlamoqda. Shahar anvoi gullarga burkangan go'zal chamanzorni eslatadi. Kechagina yadro quroliga nishon bo'lgan, uning behisob g'am-anduhlaridan qaddi dol bo'lgan shahar bugun yana o'nglangan, Yaponiya taraqqiyotiga sezilarli ulush qo'shmoqda.

Eng muhimmi, xirosimaliklar EZGULIK har qanday yadro quroldan-da qudratli ekanini his etib yashamoqda. Atom balosidan zada minglab qalblar tinchlik, barqarorlik, taraqqiyotga intilish insoniyatning a'moliga aylanishi tarafdoi. Bu ezgu maqsadlarga erishish uchun hali ko'p kurashishga to'g'ri keladi.

Toshkent-Tokio-Xirosima-Toshkent